

## TILLAR VA TARJIMALAR

*A. Qodiriy nomli JDPU,  
Fakul'tetlararo xorjiy tillar  
kafedrasi o'qituvchisi  
dots. A. E. Boymatov,  
B.K. Karaboshev.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tarjima atamasining turli davrdagi shakllari va tarjima muammolari haqida fikrlar bildiriladi.*

**Tayanch so'zlar:** *tarjima, adabiy, mazmun, ma'no, jarayon, yaratish, elementlar, ifodalanish, uslub, asliyat, ijod.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются различные формы перевода терминов в разных периоды и проблемы перевода.*

**Ключевые слова:** *перевод, литературный, содержание, смысл, процесс, создать, элементы, выражение, стиль, оригинал, творчество.*

**Abstract:** *This article discusses the various forms of the term translation in different periods and the problems of translation.*

**Key words:** *translation, literary, content, meaning, process, create, elements, expression, style, original, creativity.*

Tarjima (arab.) adabiy ijodning bir turidir. Aslida, tarjima atamasi fors tilidan olingan bo'lib, "tarzabon" sozining arabiylashib o'zgargan shakli – "chiroyli so'zlovchi", "notiq", "tili burro" kabi ma'nolarni anglatib, arab tilida "tarjumon" shaklida bir tilda yozilgan matn yoki nutqning boshqa tilda qayta yaratilishidir, degan mazmunda qo'llanilib kelishi kuzatilgan. Ana shundan "tarjima" yoki "qaytarish", "ag'darish", "o'gurish" atamalar bilan tarjimonlar faoliyatida ishlatilgan. [1,96]. N. Komilovning tadbiri bilan aytganda, ko'p yillar davomida tarjima atamasi sharh, tafsir, bayon qilish, tushuntirish kabi so'zlari orqali ham ifodalanilib, tarjimonlarimiz ijodida qo'llanilib kelingan [2, 55-61].

Tarjima – ma'lum bir tilda yozilgan matn yoki aytilgan nutqning boshqa tilda qayta yaratilishidir, o'sha tilda voqea-hodisalarni mazmunan, ma'no jihatdan yoritishdir. X asrgacha o'zbek klassik adabiyotining shakllanishida Qutb va Haydar Xorazmiy, Sayfi Saroiy, Ogahiy kabi boshqa tarjimonlar nomi madaniyatimiz tarixida muhim o'rin tutadi. Dastlab Xorazmda tarjima maktabi shakllanib, ko'plab she'riy, nasriy va tarixiy asarlar turkiy til (eski o'zbek tili) ga o'girilgan.

Inqilobdan oldingi davrda fors, tojik va arab tillaridan qilingan tarjimalar asosiy o'rinni egallab kelgan, rus adabiyotidan qilingan tarjimalar shular jumlasidandir. Bu davrda tarjima jarayoni keng quloch yoygan edi. O'zbek adiblaridan G'. G'ulom, A. Qahhor, H. Olimjon, S. Ayniy, Mirtemir, M. Ismoilov, M. Shayxzoda, A. Muxtor, Zukfiya

kabilar tarjima sohasida samarali mehnat qilib kelganlar. Badiiy tarjimalar yo'nalishida esa A. Muhammedov, Sh. Shomammedov, M. Osim, A. Qahhor, V. Ro'zimatov, O. Sharopovlarning olib borgan ishlari ancha salmoqli bo'ldi [O'SE, 1978.-10 jild, 559-560 b.].

Yuqorida qayd etilgan tarjimonlarimizning har biri o'zlarining uslublari bo'yicha, tarjimashunoslikda faoliyat ko'rsatib kelganlar. Tarjima jarayonida asl nusxadagi ba'zi elementlarning ma'nosi o'zgarib, boshqa ma'noni ifodalashi mumkin. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, agar birinchi tarjimon tarjimada 50 xatoga yo'l qo'ysa, ikkinchi tarjimon ham albatta o'sha xatoni takrorlaydi va o'zi ham ba'zi xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Bunday xatoliklar albatta tarjimadan qilingan tarjimada uchraydi.

Tarjima jarayonida, tarjima qilish uchun avvalombor tarjima qilinayotgan narsani tushunib, uning to'g'ri muqobil so'zlarini izlab topish muammosini hal etish lozim. Bu holat har bir tarjimondan o'z ona tilisini mukammal bilishni taqoza etadi. Shuningdek, matnlarda uchragan har bir so'z, atama, so'z birikmalaridan tashqari grammatik shakllarni ham izlab topish kabi muammolarni yuzaga keltirish mumkin.

Tarjima sohasiga hamma ham qo'l uravermaydi. Tarjimaning amaliy faoliyat turi sifatida bir necha ming yillik tarixga ega bo'lsa-da, tarjima haqidagi fan XX asrning o'rtalarida keng quloq yoza boshladi. So'ngi yillarda xalqaro aloqalar avj olib, fan va texnika, dunyo xalqlari o'rtasida o'zaro bordi-keldi, sayyohlarning ko'payishi hamda madaniy, ma'rifiy aloqalar sabab, tarjimonlarga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Bunday ehtiyojni qondirish uchun nafaqat O'rta Osiyo, balki Evropaning Shvetsariya o'lkasida "Übersetzerhaus in Loren" va Sharq mamlakatlarida tarjimonlik maktablari, Oliy o'quv yurtlarining ba'zi fakul'tetlarida tarjimonlik yo'nalishlari va institutlar ham ochildi. Shu o'rinda tarjimashunoslik sohasi bo'yicha tarjimon, professor G'. Salomovning xizmatlarini alohida e'tirof etib o'tish lozim. U kishi, badiiy asarni qayta jonlantirish borasida amalga oshiraladigan eng muhim uchta bosqichni nazarda tutadi: a) asl nusxani tarjimon qanday qabul qilishi (idrok qilishi, tushunishi); b) asarni real, muallifning maqsad-muddoasi va uning o'ziga xos uslubini qanday talqin qilishi; c) so'z san'ati namunasini o'z ona tilida qayta tiklashda muqobil vosita topa olishi [3;109-135].

Tarjima atamasi "Dolmetsch" nafaqat O'rta Osiyo mamlakatlarida, balki Evropa mamlakatlaridan Germaniyada dastlab XIII - asrning 1231-1232 yillarida chop etilgan nemis tili etimologik va izohli lug'atlar tarkibida, shuningdek, har xil turkiy tillar lug'atlarida turli shakllarda uchraydi. Masalan: dragoman, dra'man, ar. tarğuman, ўзб. tilmoch, слав. тълмаць, кыпч. тълмас, каз. tilmas, тел., алт. tilmač, тур. dilmaç, уйғ. tilmäzi, talami, ТОЛМАЧ; tolke, tolek, tolcke, tolleck, tollick veng. tolmacs, tolmetsche va boshqalar. Dolmetsch – atamasi deyarlik nemis tili lug'atlarining hammasida qayd etilgan. Buning sababi, nemis va turkiy xalqlarning o'zaro adabiy aloqalari natijasidir-deb bilamiz. Bu so'zning aynan lug'atlarda paydo bo'lish tarixini aynan keltiramiz. Ya'ni, Evropa va turkiy xalqlarining tarjima sohasidagi bunday adabiy aloqalari,

asosan, Ulug' Oktyabr Revolyutsiyasidan keyinroq boshlanganidan darak beradi. Bunga qadar, nemis adabiyotida, namuna sifatida bitta ertakning tarjimasi bizga ma'lum. U ham bo'lsa, "Bir musarrax daraxtzor" o'aybek adabiyoti tarixining to'rtinchi kitobiga kiritilgan.

Keyingi yillarga kelib, tarjimashunoslik sohasi keng rivojlanib, nemis tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan nemis tiliga qilingan asarlar soni oshib boraverdi. Xususan, Genrich Geynining go'zal she'rlari, Fridrix Shillerning o'lmas dramalari, Anna Segersning fashizimni fosh qiluvchi "Barhayot o'liklar", Gyotining falsafaga boy "Faust" asari, Villi Brextning she'rlari, "Yosh Verterning iztiroblari" kabi asarlarning o'zbek tiliga qilingan tarjimalari katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbek kitobxonlar yuqorida qayd qilingan asarlar orqali nemis xalqining oldingi va keyingi urf-odatlar va turmush sharoitlari bilan tanishib borish imkoniyatlariga ega bo'lmoqdalar. O'z navbatida, o'zbek adabiyoti namunalaridan ham ayirim asarlar Germaniyada peshma-pesh tarjima qilinib kelinmoqda. Masalan, A. Qahhorning "Sinchalak" povesti (Sekretar Saida nomi bilan), S. Ayniyning "Sudxo'rning o'limi", A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani kabi asarlarning tarjimasi nemis xalqiga manzur bo'ldi. O'zbek xalqining boshqa xalqlar asarlari bilan bevosita tanishib borishlari, tarjima sohasida bir qancha nazariy va amaliy muammolarni hal etishni taqoza qiladi.

Tarjimachilik bilan shug'ullanuvchi tarjimon til va so'z boyligiga mukammal ega bo'lmog'i lozim. Bu borada tarjimon ko'p manbalarga va ancha so'zlarning anglatayotgan ma'nolariga murojaat qilishiga to'g'ri keladi. Hozirga qadar tarjima qilishning aniq bir uslubi yaratilmagan. Bir tarjimonning ugurgan tarjimasi, ikkinchi tarjimonning tarjimasidan farq qilgan jihatlari ham uchrab turadi. Har bir tarjimon o'z tarjima uslubidan foydalanib asarlarni yoki she'rlarni tarjima qiladi.

Tarjima murakkab jarayon, unga har kim ham qo'l uravermaydi. Buning uchun tarjima mahoratini egallash va bilimdon bo'lmog'i lozim. Tarjimaning turlari ko'p. Masalan, so'zma-so'z, yozma, og'zaki, sinxron va boshqa tarjimalar.

O'zbekiston davlat jahon tillar unversiteti magistranti M. Sattarovning Alisher Navoiy hikmatlaridan nemis tiliga tarjima qilgan:

Asli:	Odam borki, odamlarning naqshidir,
Tarjimasi:	Es gibt den Menschen, der die Zierte der Leute ist, es gibt den Menschen, das Tier ist besser als er yoki, Yaxshi soz - jon ozig'i

Ein gutes Wort ist eine Freude fürs Herz, shu kabi hikmatlardan o'n sakkistasini tarjima qilishga uringan. Bu tarjimalarning asliyatdagi mazmuni qay yo'sinda amalga oshirilganligi, tarjimaning qaysi usuldadagisidan foydalanganligi kitobxonga havola.

Tarjima sohasidagi badiiy bilimdonlik, tarjima qilinayotgan ikkala til leksemalari leksik, semantik, stilistik jihatlariga e'tibor qaratish eng dolzarb masala bo'lib,

tarjimashunoslikdagi qiyinchiliklardan hisoblanadi, bunday qiyinchiliklarni bartaraf etish bo'yicha hali-hamon bir to'xtamga kelingan emas. Asliyat shakl-mazmunini yuqori darajada saqlab qolish, tarjimada muhimligicha qolmoqda. So'zlarning o'z muqobil varianlarini topib, ularni o'z o'rnida tarjimaga kiritish, har jihatdan mos keladigan ajoyib tarjimaga yo'l ochadi. Bu esa tarjimonning oldiga qo'yilgan maqsadning to'g'ri ifoda etilganligini bildiradi.

Har qanday mamlakat aholisining turmush-tarzini ifodalaydigan so'z birliklarini bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilish, keng va atroflicha tahlil qilinishi tarjimonning badiiy va adabiy mazmun-mohiyatiga jiddiy e'tibor qaratish, ma'lum bir asarning o'ziga xos uslubini va milliyligini qayta yaratishdek katta masala bo'lib, ham amaliy, ham nazariy ahamiyatga ega.

Tarjima jarayonida ikki tillik lug'atlardan foydalanish, ko'zlangan maqsadga erishtirmaydi. Chunki, ikki tillik lug'atlarda berilgan so'zlar tarjimada o'zlik qiladi va so'zlarning hamma ma'no xususiyatlarini ochib beraolmaydi. Natijada, matn ichidagi voqea-hodisalarning mazmuni kitobxonda ikkilanish holati keltirib chiqaradi. Buning uchun, tarjimon ko'p mehnat qilishi, ma'lum manbalardan unumli foydalanib, mavjud nufuzli etimologik va izohli lug'atlardan foydalanishi zarur. Shuni aniq bilgan holda, tarjimonga muqobil so'zlar ustida chuqurroq o'rganishga ehtiyoj tug'uladi va tarjima osonroq ko'chadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'.Salomov. Tarjima nazariyasiga kirish.- "O'qituvchi" nashriyoti.- T.:1978.- B. 219.
2. G'.Salomov. O'sha kitob.- 109-138 b.
3. N. Komilov. "Tarjima san'ati" maqolalar to'plami.-1976 y.
4. Campe J.H. Wörterbuch der deutschen Sprache. Braunschweig, 1807 - 1811. Bd. 1- 5., va boshqa nemis tilining nufuzli lug'atlari
4. Мамаджонов, Р. (2023). "VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O'RNI VA ROLI" MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHLILI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/5).
5. Akramovich, M. R. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL DIRECTION OF YOUNG PEOPLE.
2. Akramovich, M. R. (2023). Patriotism and its Importance in Involving Young People in the Armed Forces. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 17, 31-33.

3. Мамажонов, Р. А., Тилаволдиев, Ш. Х., & Тўхтаназаров, И. И. (2020). ЁШЛАРНИНГ ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА ЖАНГОВАР ВА МЕҲНАТ ШУҲРАТИ МУЗЕЙЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Интернаука*, (21-3), 74-75.
4. Мамажонов, Р. А., & Ахунов, И. И. (2020). ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА БАДИИЙ АДАБИЁТ, КИНО, ТЕАТР ВА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ АҲАМИЯТИ. *Интернаука*, (22-3), 64-66.
5. Rahimova, B. (2023). SHE'RIYAT JOZIBASI YOXUD JOZIBALI SHE'RIYAT. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 21-24.
6. Rahimova, B. (2022). MUMTOZ ADABIYOTGA SHAYDOLIK. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 1(4), 33-37.
7. Раҳимова, Б. (2022, April). ЭЗГУЛИКНИ КУЙЛОВЧИ ШЕЪРИЯТ. In *E Conference Zone* (pp. 173-175).
8. Rahimova, B. (2021). Synthesis of Traditionality and Distinctiveness in Literary Heritage. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 82-89.
9. RAHIMOVA, B. (2021). BADIY ADABIYOTDA IJODKOR SHAXS OBRAZI TALQINLARI. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 1(02), 17-28.